

## ONA TILI VA ADABIYOT

1. Qaysi gapdagi soʻzlar imlosida faqat tovush almashish hodisasi kuzatiladi?

- A) **U endi podshoning topshirigʻini bajarish uchun uni tinmay maqtar, butun ayyorligini ishga solar edi.**
- B) *Barmogʻingiz bilan tirnoq yuzasi burchagidagi nuqtani biroz bosib tursangiz, shunda tish ogʻrigʻi darrov toʻxtaydi.*
- C) *Hoʻkiz kechqurun qorni ochib, charchab kelsa, uning oldiga bir bogʻ quruq poyani tashlab qoʻyar ekan.*
- D) *Garchi bu hol ularni oqlashga tirnoqcha asos boʻlmasa ham, koʻnglimda oʻzimga tasalli berish, aldash kabi bir kayfiyat bor edi.*

Ushbu test topshirigʻini bajarish uchun nutqimizda roʻy beradigan tovush oʻzgarish hodisalari haqida bilim va koʻnikmaga ega boʻlish talab etiladi. A javobdagi soʻzlar imlosida faqat tovush almashish hodisasi kuzatiladi, yaʼni **topshirigʻini** va **ayyorligini** soʻzlarida egalik qoʻshimchasi qoʻshilishi natijasida **q** undoshining **gʻ** undoshiga hamda **k** undoshining **g** undoshiga almashishi yuz bergan. B javobda tovush almashishi va tovush ortishi (**barmogʻingiz, tirnoq, burchagidagi, shunda, ogʻrigʻi**), C javobda tovush tushishi va tovush almashishi (**qorni, quruq**), D javobda ham tovush almashishi va tovush tushishi (**tirnoqcha, koʻnglimda**) kuzatiladi.

**Toʻgʻri javob: A.**

**Manba:** N.M.Mahmudov va boshqalar. 7-sinf ona tili darsligi. “Maʼnaviyat” nashriyot uyi. Toshkent-2017.

2. Qaysi javobda imloviy xato yozilgan soʻzlar soni ikkita?

- A) **Yaxshilik qilsang, ohirigacha yaxshilik qilgin, zinxor minnat qilma.**
- B) *Qor urib turgan bir kun edi. Birdan koʻchada dod-faryot koʻtarilib qoldi.*
- C) *Zebi yuragida tugulib yotgan zoʻr tugunni yechib yuborgan edi.*
- D) *Oʻrtadagi xontaxtada sovub qolgan kabob va meva-cheva bor edi.*

Oʻquvchilarning yozma savodxonligini baholashga qaratilgan ushbu test topshirigʻining A javobida imloviy jihatdan xato yozilgan soʻzlar soni ikkita (**ohirigacha** soʻzi **oxirigacha, zinxor** soʻzi **zinhor** tarzida yozilishi kerak) boʻlib, boshqa javoblarda esa imloviy jihatdan xato yozilgan soʻzlar bir oʻrinda uchraydi. Yaʼni B javobdagi **dod-faryot** (**dod-faryod** tarzida yozilishi kerak), C javobdagi **tugulib** (**tugilib** tarzida yozilishi kerak), D javobdagi **sovub** (**sovib** tarzida yozilishi kerak) soʻzlari imloviy jihatdan xato yozilgan.

**Toʻgʻri javob: A.**

**Manba:** N.M.Mahmudov va boshqalar. 5-sinf ona tili darsligi. “Maʼnaviyat” nashriyot uyi. Toshkent-2015.

3. Imloviy jihatdan to'g'ri yozilgan so'zlar qatorini aniqlang.

- A) **ajabtovur, armug'on, tajovuz**  
 B) *daromat, strategiya, sa'y-harakat*  
 C) *pinxona, mudofa, taqiqlamoq*  
 D) *taaajjub, zarp etmoq, yondashuv*

O'quvchilarning yozma savodxonligini baholashga qaratilgan ushbu test topshirig'ida to'g'ri yozilgan so'zlar qatori A javobda berilgan. Ya'ni **ajabtovur, armug'on, tajovuz** so'zlarining yozilishida imloviy xatolik uchramaydi. B javobdagi **daromat** (*daromad* tarzida yozilishi kerak), C javobdagi **pinxona, mudofa** (*pinhona, mudofaa* tarzida yozilishi kerak), D javobdagi **zarp etmoq** (*zarb etmoq* tarzida yozilishi kerak) so'zlari imloviy jihatdan xato yozilgan.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** N.M.Mahmudov va boshqalar. 5-sinf ona tili darsligi. "Ma'naviyat" nashriyot uyi. Toshkent-2015.

4. *Dunyodagi eng ulug' martaba eng ulug' sharaf Vatan ozodligi uchun xizmat qilish deydi A.Oripov*

Mazkur ko'chirma gapli qo'shma gapda tushirib qoldirilgan tinish belgilari qaysi javobda tartib bilan to'g'ri berilgan?

- A) « , — », — .  
 B) « , », — .  
 C) « — » — .  
 D) « — , », — .

Ushbu test topshirig'ini bajarish uchun abituriyentlardan uyushiq bo'laklar orasida vergulning qo'llanishi, ega va bog'lamasiz ot kesim orasida tirening ishlatilishi, ko'chirma gapli qo'shma gaplarda ishlatilishi lozim bo'lgan tinish belgilari haqidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi. Mazkur ko'chirma gapli qo'shma gapda qo'llanishi lozim bo'lgan tinish belgilarining ketma-ketlik tartibi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: « , — », — .

*"Dunyodagi eng ulug' martaba, eng ulug' sharaf – Vatan uchun xizmat qilish", – deydi A.Oripov.*

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** N.M.Mahmudov va boshqalar. 9-sinf ona tili darsligi. "Tasvir" nashriyot uyi. Toshkent-2019.

5. Qaysi so'zlar qatorida boshqalari bilan o'zaro ma'nodoshlik hosil qila olmaydigan so'z ishtirok etgan?

- A) **eplamoq, uddalamoq, sarflamoq**  
 B) *yalqov, ishyoqmas, tanbal*  
 C) *betob, bemor, xasta*  
 D) *ayyor, quv, mug'ombir*

Ushbu test topshirig'ining B (*yalqov, ishyoqmas, tanbal*), C (*xasta, bemor, kasal*), D (*ayyor, quv, mug'ombir*) javoblaridagi so'zlarning barchasi bir-biri bilan o'zaro ma'nodoshlik hosil qila oladi. A javobdagi **eplamoq, uddalamoq** so'zlari o'zaro ma'nodoshlik hosil qila oladi, ammo **sarflamoq** so'zi ushbu so'zlar bilan ma'nodoshlik hosil qila olmaydi.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** N.M.Mahmudov va boshqalar. 10-sinf ona tili darsligi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2017.

6. Qaysi gapda qatnashgan sodda yasama soʻzning asosi ot turkumiga oid soʻz bilan shakldosh boʻla oladi?
- A) **Dehqonlar ish qurollarini sozladilar.**  
 B) *Senga qondosh elning hurmatini oʻrniga qoʻyishing kerak.*  
 C) *Karima xola bolalarining yozlik koʻylaklarini yigʻishtirib olib qoʻydi.*  
 D) *Oʻylamay qilingan ish – boshga keltirar tashvish.*

Ushbu test topshirigʻini bajarish uchun abituriyentlardan soʻz turkumlari, ularning shakldoshlik xususiyatlari, soʻzlarning maʼnoli qismlarga ajratilishi haqida bilim va koʻnikmaga ega boʻlish talab etiladi. Test topshirigʻining A javobida qatnashgan **sozlam** soʻzining asosi sifat soʻz turkumiga mansub soʻz boʻlib, ushbu soʻz ot turkumiga mansub **soz** (musiqa asbobi) soʻzi bilan shakldoshlik hosil qila oladi. Boshqa javoblarda qatnashgan sodda yasama soʻzlarning (**qondosh**, **yoziq**, **oʻylamay**) asoslari ot turkumiga mansub soʻzlar boʻlib, ushbu asoslar ot turkumidagi soʻzlar bilan emas, feʼl turkumidagi soʻzlar bilan shakldoshlik hosil qila oladi.

**Toʻgʻri javob: A.**

**Manba:** N.M.Mahmudov va boshqalar. 10-sinf ona tili darsligi. “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2017.

N.M.Mahmudov va boshqalar. 5-sinf ona tili darsligi. “Maʼnaviyat” nashriyot uyi. Toshkent-2015.

N.M.Mahmudov va boshqalar. 6-sinf ona tili darsligi. “Tasvir” nashriyot uyi. Toshkent-2017.

7. Qaysi gaplar juftligida berilgan -siz shaxs-son qoʻshimchasi bir oʻrinda birlik va bir oʻrinda koʻplik maʼnosini ifodalab kelgan?
- A) **Siz bu bolaga yetti yot begonasiz, ammo u sizni oʻz otasiday koʻrar ekan.**  
**Endi menga ruxsat berasiz, hali ishlarim koʻp, – dedi auditoriyaga qarab.**  
 B) *Ikkingiz turmush qurasiz, keyin shu yerda yashaysiz.*  
*Hali boshqa odamlar bilan ham doʻstlashasiz, aziz bolalar.*  
 C) *Hozir mana bu rasmni chizasiz, oʻgʻlim, keyin ikkovlashib kamchiligini toʻldiramiz.*  
*“Siz ham menga juda yoqasiz”, – dedi unga.*  
 D) *Kech boʻlib qoldi, qani, turinglar, yigitlar, endi ketasiz.*  
*Hamma yigʻilsin, biz bilan birga joʻnaysiz.*

Ushbu test topshirigʻini bajarish uchun shaxs-son qoʻshimchalari va ularning uslubiyati haqidagi bilim va koʻnikmaga ega boʻlish talab etiladi.

Test toshirigʻining A javobidagi birinchi gapda qoʻllangan **-siz** shaxs-son qoʻshimchasi yakka shaxsni bildirib hurmat maʼnosida qoʻllangan. Ikkinchi gapdagi **-siz** shaxs-son qoʻshimchasi esa koʻplikdagi shaxslarni bildiradi, yaʼni **auditoriyaga** (metonimiya asosida soʻz maʼnosi koʻchgan) murojaat qilish orqali bir emas, bir nechta tinglovchi nazarda tutilgan.

C javobdagi har ikki gapda **-siz** shaxs-son qoʻshimchasi yakka shaxsni bildirib kelgan. B, D javobdagi har ikki gapda **-siz** shaxs-son qoʻshimchasi koʻplikdagi shaxs-son maʼnosini ifodalagan.

**Toʻgʻri javob: A.**

**Manba:** N.M.Mahmudov va boshqalar. 10-sinf ona tili darsligi. “Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent-2017.

N.M.Mahmudov va boshqalar. 6-sinf ona tili darsligi. “Tasvir” nashriyot uyi. Toshkent-2017.

8. *Ilm olish igna ... quduq qazish demakdir. Bilmaslik ayb emas, bilim... intilmaslik aybdir. Bilim har qanday boylik... afzal sanaladi.*

Ushbu parchada ko'p nuqtalar o'rnida yozilishi kerak bo'lgan til birliklari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

- A) ko'makchi, jo'nalish kelishigi  
qo'shimchasi, chiqish kelishigi  
qo'shimchasi
- B) biriktiruv bog'lovchisi, chiqish kelishigi  
qo'shimchasi, chiqish kelishigi  
qo'shimchasi
- C) ko'makchi, qaratqich kelishigi  
qo'shimchasi, jo'nalish kelishigi  
qo'shimchasi
- D) biriktiruv bog'lovchisi, jo'nalish kelishigi  
qo'shimchasi, tushum kelishigi  
qo'shimchasi

Mazkur test topshirig'i abituriyentlardan gapda so'zlarni to'g'ri shakllantira olish, ya'ni ularning bir-biri bilan bog'lanishi uchun zarur bo'lgan ko'makchi va kelishiklar kabi grammatik vositalardan to'g'ri foydalana olishga oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishni talab etadi. Ushbu talab asosida mazkur gapdagi ko'p nuqtalar o'rniga **bilan** ko'makchisi, **-ga** jo'nalish kelishigi, **-dan** chiqish kelishigi qo'shimchasini qo'llash maqsadga muvofiq sanaladi.

*Ilm olish igna bilan quduq qazish demakdir. Bilmaslik ayb emas, bilimga intilmaslik aybdir. Bilim har qanday boylikdan afzal sanaladi.*

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** N.M.Mahmudov va boshqalar. 10-sinf ona tili darsligi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2017.

9. Qaysi so'zlar juftligi tub va yasama so'zlarga mansub bo'la oladi?

- A) sozlar (musiqa asboblari) – sozlar (harakat bildiruvchi so'z)
- B) olma(meva) – olma (harakat bildiruvchi so'z)
- C) kechik (daryoning kechuv joyi) – kechik (harakat bildiruvchi so'z)
- D) bo'g'ma (kasallik nomi) – bo'g'ma (belgi-xususiyat bildiruvchi so'z)

Ushbu test topshirig'ini bajarishda abituriyentlardan so'z tarkibi (asos, so'z yasovchi qo'shimchalar, shakl yasovchi qo'shimchalar), tub va yasama so'zlar haqidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi.

A javobda berilgan ko'plik shaklidagi musiqa asbobi ma'nosini anglatuvchi **sozlar** (**soz + lar**) so'zi tub so'z hisoblanadi, chunki uning tarkibida so'z yasovchi qo'shimcha mavjud emas. Ikkinchi **sozlar** so'zi esa fe'l so'z turkumiga mansub bo'lib, **soz** sifatiga **-la** fe'l yasovchi va fe'lga xos zamon ma'nosini anglatuvchi **-r** shakl yasovchi qo'shimchaning qo'shilishi kuzatiladi. Bunday xulosaga kelish uchun ushbu so'zlarning qavs ichida berilgan izohiga asoslanamiz. B javobdagi har ikki so'z tub so'z sanaladi: **olma (ot) – ol (fe'l) + ma (bo'lishsizlik shakli).**

C va D javobdagi har ikki so'z yasama so'z sanaladi: **kech (fe'l) + ik (ot yasovchi) – kech(ravish) + ik(fe'l yasovchi); bo'g'(fe'l) + ma (ot yasovchi) – bo'g'(fe'l) + ma (sifat yasovchi)**

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** N.M.Mahmudov va boshqalar. 6-sinf ona tili darsligi. "Tasvir" nashriyot uyi. Toshkent-2017.

10. Qaysi gapda tub va yasama asliy sifatlar ishtirok etgan?

- A) **Uning jussasi kichkina bo'lsa ham, yuzlari jiddiy, boqishlari o'tkir, ovozi esa jarangdor.**
- B) *Yonbag'irlarda rang-barang tovlanib, xushbo'y atrini taratayotgan gullarga nazar tashlayman.*
- C) *Hovlimizda ko'cha eshikdan kiraverishda kichkina, g'ishtin uycha bor.*
- D) *Temur insoniylik xususiyatlariga ega bo'lgan buyuk shaxs edi.*

Ushbu test topshirig'ini bajarish uchun sifat so'z turkumi va unga xos bo'lgan xususiyatlar haqidagi bilim va ko'nikmaga ega bo'lish talab etiladi.

A javobda qatnashgan ***kichkina, jiddiy*** so'zlari tub asliy sifatlarga mansub bo'lsa, ***o'tkir, jarangdor*** so'zlari yasama asliy sifatlar sirasiga kiradi. B javobda qatnashgan sifatlar (***rang-barang, xushbo'y***) yasama sifatlar sanaladi, tub sifat mavjud emas. C javobdagi gapda tub asliy (***kichkina***) va yasama nisbiy (***g'ishtin***) sifat qatnashgan. D javobda esa sifat turkumiga oid faqat bitta tub so'z (***buyuk***) qatnashgan.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** N.M.Mahmudov va boshqalar. 6-sinf ona tili darsligi. "Tasvir" nashriyot uyi. Toshkent-2017.

11. Qaysi javobda ega vazifasida kelgan yasama shaxs oti ishtirok etgan?

- A) **Kuni bilan terimchilar tinmadi, hali dalada paxta ko'p.**
- B) *Hoji buvi qo'lidan kelgancha dori-darmon qildi, keyin oyim tuzaldi.*
- C) *Bilimdonlar dangasalik qilmaydi, har doim o'z ustida ishlaydi.*
- D) *Dehqon mirobga qarab gapida davom etdi.*

Ushbu test topshirig'ini bajarish uchun ot so'z turkumi va unga xos bo'lgan xususiyatlar haqidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi.

A javobda qatnashgan ***terimchilar*** so'zi yasama shaxs oti bo'lib, ushbu so'z gapda ega vazifasini bajargan. B javobdagi gapda ega vazifasida kelgan ***Hoji buvi*** va ***oyim*** so'zlari ham shaxs oti sanaladi, ammo ushbu so'zlar yasama emas. C javobdagi gapda ega vazifasida kelgan ***bilimdonlar*** yasama so'zi shaxs oti emas, otlashgan sifat sanaladi. D javobdagi ega vazifasida kelgan ***dehqon*** so'zi tub shaxs oti sanaladi.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** N.M.Mahmudov va boshqalar. 6-sinf ona tili darsligi. "Tasvir" nashriyot uyi. Toshkent-2017.

12. *Suhbatlashishga arziydigan kishi bilan gaplashmaslik kishini yo‘qotishdir. Suhbatlashishga arzimaydigan kishilar bilan gaplashish so‘zni yo‘qotishdir. Oqil odam esa kishilarni ham, so‘zni ham yo‘qotmaydi.* Ushbu parchada qatnashgan fe‘llar haqidagi to‘g‘ri fikrni aniqlang.

- A) Ushbu parchada qatnashgan tub fe‘llar bir xil bo‘lak vazifasini bajargan.  
 B) Ushbu parchada harakat nomi shaklida kelgan tub fe‘l qatnashgan.  
 C) Ushbu parchada birgalik nisbatdagi tub fe‘l qatnashgan.  
 D) Ushbu parchada qatnashgan tub fe‘llar ikki xil nisbat shaklida qo‘llangan.

Ushbu test topshirig‘ini bajarish uchun fe‘l so‘z turkumi haqidagi bilim va ko‘nikmalarga tayaniladi. Gapda bo‘lishli va bo‘lishsiz shakldagi yasama fe‘llar (*suhbatlashishga, gaplashish, yo‘qotish, gaplashmaslik, yo‘qotmaydilar*), bo‘lishli va bo‘lishsiz shakldagi tub fe‘llar (*arziydigan* va *arzimaydigan*) qatnashgan. *Arziydigan* va *arzimaydigan* tub fe‘llari aniq nisbat shaklidagi fe‘llar sanaladi va ushbu fe‘llar gapda bir xil bo‘lak, ya‘ni sifatlovchi aniqlovchi vazifasini bajargan. Mazkur gapda birgalik nisbatdagi va harakat nomi shaklidagi tub fe‘llar qatnashmagan. Ushbu ma‘lumotlardan kelib chiqqan holda test topshirig‘ining A javobida berilgan hukm to‘g‘ri ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

**To‘g‘ri javob: A.**

**Manba:** N.M.Mahmudov va boshqalar. 6-sinf ona tili darsligi. “Tasvir” nashriyot uyi, Toshkent-2017.

13. *Qutida qizil ruchka bilan yozilgan xat bor ekan.*

Mazkur gapdagi *bilan* ko‘makchisi o‘zi bog‘langan so‘zga qanday ma‘no yuklagan?

- A) **vosita ma‘nosini** B) *holat ma‘nosini*  
 C) *payt ma‘nosini* D) *birgalik ma‘nosini*

Mazkur gapdagi *bilan* ko‘makchisi so‘zga vosita ma‘nosini yuklagan.

**To‘g‘ri javob: A.**

**Manba:** N.M.Mahmudov va boshqalar.

7-sinf ona tili darsligi Toshkent

“Ma‘naviyat”-2017.

14. *Bugungi kunda har bir xalq umumbashariy taraqqiyot yutuqlarini o‘rganishga intilmoqda.*

Ushbu gap haqidagi noto‘g‘ri hukmni aniqlang.

- A) Ushbu gapda fe‘lli so‘z birikmasi mavjud.  
 B) Ushbu gapda qismlari ko‘makchi yordamida bog‘langan so‘z birikmasi mavjud.  
 C) Ushbu gapda qismlari kelishik yordamida bog‘langan so‘z birikmasi mavjud.  
 D) Ushbu gapda otli so‘z birikmasi mavjud.

Ushbu test topshirig‘ini bajarish uchun gapda so‘zlarning bog‘lanishi, kelishikli va ko‘makchili bog‘lanishlar, otli va fe‘lli so‘z birikmalari haqidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish talab etiladi. Mazkur gapdagi A, C, D javoblarda berilgan ma‘lumotlar to‘g‘ri ma‘lumotlar sanaladi. Chunki gapda tobe qismlari hokim qismga kelishik yordamida bog‘langan otli va fe‘lli so‘z birikmalari mavjud. Noto‘g‘ri ma‘lumot esa B javobda berilgan, chunki tobe qismi hokim qismga ko‘makchi yordamida bog‘langan so‘z birikmasi esa mavjud emas.

**To‘g‘ri javob: B.**

**Manba:** M.Qodirov va boshqalar. 8-sinf ona tili darsligi. “Tasvir” nashriyot uyi, Toshkent-2019.

15. Qaysi javobda to'ldiruvchi vazifasida kelgan qaralmish qatnashgan gap berilgan?

A) **So'zdan qudratliroq narsa yo'q. U insonlarning dunyoqarashini o'zgartira oladi.**

B) *Kitoblar keksalikda eng yaxshi do'st, ayni paytda yoshlikning eng aziz rahnamosidir.*

C) *Til do'stlik va hamjihatlikni qaror toptirishning eng qulay vositasidir.*

D) *So'z – inson qudratining qo'mondoni, u – hayotning buyuk quroli.*

Ushbu test topshirig'ini bajarish uchun gapda so'zlarning bog'lanishi, so'z birikmalari, tobe va hokim qismlar, qaratqich-qaralmish munosabatlari haqidagi bilim va ko'nikmaga ega bo'lish talab etiladi.

A javobdagi gapda **insonlarning duyoqarashini** so'z birikmasida qismlar qaratqich-qaralmish munosabatiga kirishgan bo'lib, qaralmish, ya'ni **dunyoqarashini** so'zi to'ldiruvchi vazifasida kelgan.

B va C javobda qatnashgan qaratqich-qaralmish munosabatlarida (**yoshlikning rahnamosidir, qaror toptirishning vositasidir**) esa **qaralmishlar** ot kesim vazifasini bajargan.

D javobda qaralmishlar qaratqich aniqlovchi (**inson qudratining**) va ot kesimlar (**qudratining qo'mondoni, hayotning quroli**) vazifasini bajargan.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** N.M.Mahmudov va boshqalar. 7-sinf ona tili darsligi Toshkent

“Ma'naviyat”-2017.

M.Qodirov va boshqalar. 8-sinf ona tili darsligi. “Tasvir” nashriyot uyi, Toshkent-2019.

16. *Kitob bebaho durga o'xshaydi, insonlar ma'naviyatini boyitadi.*

Ushbu gapdagi tobe bog'lanishlarda hokim qism vazifasini bajara olmagan bo'laklarni aniqlang.

A) **ega, sifatlovchi aniqlovchi, qaratqich aniqlovchi**

B) *sifatlovchi aniqlovchi, qaratqich aniqlovchi vositali to'ldiruvchi*

C) *ega, sifatlovchi aniqlovchi, vositasiz to'ldiruvchi*

D) *ega, sifatlovchi aniqlovchi, vositali to'ldiruvchi*

Ushbu test topshirig'ini bajarish uchun gapda so'zlarning bog'lanishi, so'z birikmalari, tobe va hokim qismlar, gap bo'laklari haqidagi bilim va ko'nikmaga ega bo'lish talab etiladi.

**Kitob bebaho durga o'xshaydi, u insonlar ma'naviyatini boyitadi** gapida **kitob, bebaho, insonlar(ning) so'zlari** faqat tobe qism vazifasini bajara olgan, ya'ni gapdagi boshqa bo'laklarga nisbatan hokim qism vazifasini bajara olmagan bo'lib, ushbu so'zlar gapda ega, sifatlovchi aniqlovchi, qaratqich aniqlovchi vazifalarida kelgan. Gapdagi **durga** so'zi vositali to'ldiruvchi sanaladi va bebaho so'ziga nisbatan hokim qism hisoblanadi, **ma'naviyatini** so'zi esa vositasiz to'ldiruvchi bo'lib, **insonlar(ning)** so'ziga, ya'ni qaratqich aniqlovchiga nisbatan hokim qism vazifasini bajarishi kuzatiladi.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** M. Qodirov va boshqalar. 8-sinf ona tili darsligi. “Tasvir” nashriyot uyi, Toshkent-2019.

17. Gap bo'laklari joylashuvi quyidagi shartli belgilarga mos bo'lgan ergashgan qo'shma gapni aniqlang.

----- ===== ----- =====  
 A) **Kitob o'qisang, dunyoni taniysan.**

B) *Erga navbat – sherga navbat.*

C) *Agar elga xiyonat qilsang, salomat yasholmaysan.*

D) *Ketmon chopdim – non tishlading.*

Ushbu test topshirig'ini bajarishda gap bo'laklari, sodda va qo'shma gaplar yuzasidan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi. A javobdagi gap ergashgan qo'shma gap bo'lib, gap bo'laklarining joylashish tartibi ham test topshirig'idagi shartli belgilarga mos keluvchi bo'laklardan tashkil topgan. Ya'ni *to'ldiruvchi, kesim, to'ldiruvchi, kesim* tartibida joylashgan. B javobdagi gap ham *to'ldiruvchi, kesim, to'ldiruvchi, kesim* bo'laklaridan tashkil topgan, ammo ushbu gap sodda gap sanaladi. C javobdagi gap *to'ldiruvchi, kesim, hol, kesim* bo'laklaridan tashkil topgan ergashgan qo'shma gap sanaladi. D javobdagi gap *to'ldiruvchi, kesim, to'ldiruvchi, kesim* bo'laklaridan tashkil topgan bog'lovchisiz qo'shma gap sanaladi.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** M.Qodirov va boshqalar. 8-sinf ona tili darsligi. "Tasvir" nashriyot uyi, Toshkent-2019.

N.M.Mahmudov va boshqalar. 9-sinf ona tili darsligi. "Tasvir" nashriyot uyi, Toshkent-2019.

18. Qaysi javobda "Ravshan" dostoni voqealari bayoni to'g'ri berilgan?

A) **Go'ro'g'li asrab olgan farzandlarini bir-biriga quda qilish maqsadida Avazxonning qizi Gulanorni Ravshanxonga so'rab sovchilikka boradi, ammo Avaz o'zini boshqalardan ustun tutadi, hatto: "Qizim tugul kuchugumdan sadag'a", – deya ochiqdan ochiq haqorat qiladi.**

B) *Avazxon qizini Ravshanxonga berishni xohlamagani uchun Hasanxonning oriyati kelib o'g'lini Shirvon elga borishga va Zulxumorni olib kelishga undaydi va u bilan o'zi ham qo'shib boradi.*

C) *Ayniq, Jaynoq, Ersak, Tersak kabi polvonlar Ravshan Shirvon elda o'g'il tutingan kampirning o'z farzandlari bo'lib, Qoraxon podsho ulardan juda qo'rqar edi.*

D) *Ravshanxonning zindonda yotganini eshitgan Go'ro'g'li G'irko'k otini minib, yo'lga chiqadi va uch oylik yo'lni yigirma kunda bosib o'tib, nevarasini dor ostidan qutqarib oladi.*

Xalq og'zaki ijodiga mansub ushbu test topshirig'ini bajarish uchun abituriyentlardan o'quv darsliklarida berilgan xalq dostonlari, ulardagi voqealar bayoni haqida bilim va ko'nikmaga ega bo'lish talab etiladi. "Ravshan" dostoni voqealari bayonining to'g'ri talqini A javobda berilgan. Boshqa javoblarda esa ushbu dostonga xos voqealar noto'g'ri talqin qilingan.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** Q.Yo'ldoshev va boshqalar. 7-sinf adabiyot darsligi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent-2017.



19. ... *kun tug'adi, olam yorug' bo'ladi,  
U yorug'ligini hammaga yetkazadi,  
o'z-o'zicha yo'qolmaydi.  
Mening ham qoidam (odatim) shunday,  
o'zim yo'qolmayman,  
Fe'lim va muomalam barcha xalq uchun  
birdekdir.  
... Tuqqan kun (chiqqan kun) yaxshi yoki  
yomon demaydi,  
Barchaga birdek nur sochadi, o'zi  
kamaymaydi.*

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida qaysi ramziy qahramon o'z sifatlarini ana shu tarzda, ya'ni kun (quyosh)ning xususiyatlariga qiyoslagan holda ifodalab bergan?

- A) adolat ramzi bo'lgan adabiy qahramon
- B) davlat ramzi bo'lgan adabiy qahramon
- C) aql va zakovat ramzi bo'lgan adabiy qahramon
- D) qanoat (ofiyat) ramzi bo'lgan adabiy qahramon

Ushbu test topshirig'ini bajarish uchun abituriyentlardan Yusuf Xos Hojib ijodiga oid "Qutadg'u bilig" dostoni, undagi ramziy qahramonlarning xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lish talab etiladi. Mazkur topshiriqdagi parchada dostondagi adolat ramzi bo'lgan elig, ya'ni hukmdor timsoli Kuntug'dining xislatlari aks etgan.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** Boqijon To'xliyev va boshqalar. 11-sinf adabiyot darsligi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2018.

20. "Yigitlik chog'i – o'yin-kulgi, rohat qilish davri, qarilik esa mehnat va toat-ibodat davridir. Yoshlikda qilingan hamma gunohlar kechiriladi, keyinchalik mehnat va ibodat qiladigan vaqt ham keladi, o'shanda qilamiz", – deya umrini behuda o'tkazgan, ammo qarib, o'lim tushagida qolganda: "Qarigach, shunday kunlar boshimga tushajagini bilsam edim, yigitlik davrimni uvul qilib behudaga o'tkazmagan bo'lar edim", – deya afsuslangan g'ofil kishi haqidagi hikoyat qaysi asarda keltirilgan?

- A) "Saddi Iskandariy" (Alisher Navoiy)
- B) "Zarbulmasal" (Muhammadsharif Gulxaniy)
- C) "Qisasi Rabg'uziy" (Nosiruddin Rabg'uziy)
- D) "Qutadg'u bilig" (Yusuf Xos Hojib)

Ushbu test topshirig'ini bajarish uchun abituriyentlardan Alisher Navoiyning "Xamsa" asaridagi "Saddi Iskandariy" dostoni voqealari haqidagi bilim va ko'nikmaga ega bo'lish talab etiladi.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** Boqijon To'xliyev va boshqalar. 11-sinf adabiyot darsligi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2018.

21. *Hajringda, ey parirol, ko'zumdin qochdi uyqu,  
Har kecha tongga degru, ishimdur oh-u nola.*  
Qaysi shoir o'zining "Xating aro uzoring – sabza ichinda lola" deb boshlanuvchi g'azalining ushbu baytida asosiy qofiyadan tashqari uch o'rinda ichki qofiyadan ham foydalangan holda misralar jarangdorligi, ohangdorligini yanada oshirgan?
- A) **Zahiriddin Muhammad Bobur**  
B) *Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat*  
C) *Alisher Navoiy*  
D) *Boborahim Mashrab*

Ushbu test topshirig'ini bajarish uchun abituriyentlardan Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi haqidagi bilim va ko'nikmaga ega bo'lish talab etiladi.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** Boqijon To'xliyev va boshqalar. 11-sinf adabiyot darsligi. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2018.

22. Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani voqealari haqidagi qaysi ma'lumot to'g'ri emas?
- A) **Qobil do'stlari Sharif va Rahimlar bilan birgalikda ellik nafar yigit qo'riqlab turgan o'rda qo'rg'onidan o'tib, zindonband qilingan Sultonolini qatldan qutqarib qoladi.**
- B) *Xon Anvarlarning qochishida uning do'sti Sultonolini aybdor sanab, garov tariqasida hibsga oladi va agar Anvar taslim bo'lmasa, o'limga hukm qilishini aytib jar soldiradi.*
- C) *Anvarning mirzaboshi darajasiga erishganini ko'ra olmagan mulla Abdurahmon, Shahodat mufti va Kalonshoh mirzo kabi kimsalar Anvar bilan xonning orasini buzish uchun Ra'noning go'zalligi ta'rifini hukmdorga yetkazadilar.*
- D) *Jasorati, xonga qarshi isyoni, hatto ma'yus qolgan Anvarni yo'lga solishi o'z zamonasi uchungina emas, bizning hozirgi asrimiz uchun ham tahsinga loyiq bo'lgan Ra'no Qo'qon bilan vidolashish oldi, tahlikali bo'lsa ham, onasi bilan uchrashish fikriga tushib qoladi.*

Ushbu test topshirig'ini bajarish uchun abituriyentlardan Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani voqealari haqidagi bilim va ko'nikmaga ega bo'lish talab etiladi.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** Q.Yo'ldoshev va boshqalar. 7-sinf adabiyot darsligi. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. Toshkent-2017.

23. “Jaloliddin Manguberdi” tragediyasidagi qaysi adabiy qahramon o‘z otasining qotili bo‘lgan Temur Malikdan o‘ch olishni poylab yurgan Yaroqbekni:

“*Ammo sen-chi? Burgutlar boshlig‘iga xanjar ur,  
So‘ngra xoqon qasrida sultonlarcha davron sur!*”, – deya avval Jaloliddin Manguberдини o‘ldirishga da‘vat qiladi?

- A) **Qodog‘on no‘yon (Chingizning sarkardalaridan)**  
 B) *Chol (devona)*  
 C) *Elbors pahlavon (cho‘pon)*  
 D) *Amir Badriddin (Sultonbегinning qaylig‘i)*

Ushbu test topshirig‘ini bajarish uchun abituriyentlardan Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” tragediyasining voqealar bayoni haqida ma‘lumotga ega bo‘lish talab etiladi.

**To‘g‘ri javob: A.**

**Manba:** Sultonmurod Olim va boshqalar. 8-sinf adabiyot darsligi. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. Toshkent-2019.

24. *Kecha oqshom falakda oy bo‘zarib botganda,  
Zuhro yulduz miltirab, xira xanda otganda,  
Ruhimni bir ma‘yuslik, sokinlik uyg‘otganda,  
Men seni esga oldim, birinchi muhabbatim.  
Eslab xayolga toldim, birinchi muhabbatim.* Har bir o‘zbek kitobxonni qalbidan joy olgan ushbu jozibador satrlar bilan boshlanuvchi “Birinchi muhabbatim” she‘ri qaysi ijodkor qalamiga mansub?

- A) **Abdulla Oripov**    B) *Erkin Vohidov*  
 C) *Muhammad Yusuf*    D) *To‘ra Sulaymon*

Ushbu test topshirig‘ini bajarish uchun abituriyentlardan Abdulla Oripov she‘riyati haqida ma‘lumotga ega bo‘lish talab etiladi.

**To‘g‘ri javob: A.**

**Manba:** Boqijon To‘xliyev va boshqalar. 10-sinf adabiyot darsligi. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent-2017.

25. O‘zbekiston xalq shoirasi Halima Xudoyberdiyeva o‘zining qaysi she‘ri yaratilishi haqida yozar ekan, she‘rning yozilishiga turmush o‘rtog‘ining uylanishiga rozi bo‘lgan ayolning ikki uy oralig‘idagi katta masofada butun hovli yuziga mix qoqib chiqqani haqidagi bir rivoyat turtki bo‘lganini xotirlab: “Dastlabki turtki shu – “Mixning, tig‘ning zahrini sezmay yonib boraman” satri bo‘lib, ko‘nglimni qizdirdi. Qolgani ijodkorning xayoloti...”, – deydi?

- A) **“Begim, sizni tabiat”**  
 B) *“Dorilomon kunlar keldi...”*  
 C) *“Shunchaki”*  
 D) *“Bir o‘rim soch tarixi”*

Ushbu test topshirig‘ini bajarish uchun abituriyentlardan Halima Xudoyberdiyeva hayoti va ijodi haqida ma‘lumotga ega bo‘lish talab etiladi.

**To‘g‘ri javob: A.**

**Manba:** Q.Yo‘ldoshev va boshqalar. 9-sinf adabiyot darsligi. “O‘zbekiston” NMIU. Toshkent-2019.

26. Quyidagi jadvalning qaysi qatorlaridagi ma'lumotlar mos ravishda berilgan?

	Badiiy asarlar	Adabiy qahramonlar	Adabiy qahramonlarga berilgan ta'riflar
1.	“Navoiy”	shoir Binoiy	Turkiy tilni nihoyatda sevadigan, uni “forsiyparast”lardan qattiq himoya qiladigan, bu tilning jozibadorligini har joyda isbot eta oladigan jonkuyar timsol
2.	“Yulduzli tunlar”	Qosimbek	Boburni ota kabi asragan sadoqatli beklardan biri bo'lib, umri davomida uni himoya qilib kelgan, Humoyun mirzoni ham jangovarlik va otaga muhabbat ruhida tarbiyalashda katta hissa qo'shgan timsol
3.	“O'tkan kunlar”	Mirzakarim qutidor	Xalq uchun kuyib-pishgan, uning tinchligi, birdamligi uchun kurashgan, Toshkent hokimi Azizbekning zulmiga qarshi xalqni otlantirgan timsol
4.	“Navoiy”	Sultonmurod	Otasi shahrisabzlik sangtarosh usta bo'lib, uning vafotidan keyin tarbiyasi onasi qo'lida qolgan, voyaga yetgach Hirotga kelgan, o'z ilmi, aqli-u tafakkuri bilan mudarris darajasiga ko'tarilgan olim shaxs

A) 2, 4    B) 2, 3    C) 1, 4    D) 1, 2

Ushbu test topshirig'ini bajarish uchun abituriyentlardan mustaqil ravishda to'liq o'qish uchun tavsiya etilgan qo'shimcha badiiy asarlar, ulardagi voqealar bayoni, adabiy qahramonlar haqidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** Pirimqul Qodirovning “Yulduzli tunlar” romani, Oybekning “Navoiy” romani.

27. Qaysi javobda O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub “Dunyoning ishlari” qissasiga oid ma’lumot keltirilgan?

- A) Ushbu asarda o‘g‘li Oltmishvoy urushga ketgan, xotini Habiba buvi o‘g‘lining diydorini ko‘rmay olamdan o‘tgan, bu ayriliqqa chidolmay esdan og‘ib qolgan Ermon buva haqidagi hikoya mavjud.
- B) Ushbu asarda o‘zi nabirasiga so‘zlab bergan ertagidagi kabi bug‘u avlodidan ekanligi bilan faxrlanadigan, to‘y va ma‘rakalarda xokisorlik bilan xizmat qiladigan, ammo bu fazilatlarini qadrlanmaydigan bobo obrazi mavjud.
- C) Ushbu asarda ota-bobolarining urf-odatlarini unutilib ketayotganidan iztirobga tushadigan, kolxoz raisi bo‘lgach, onasining vafoti munosabati bilan gazetada yozilgan ta‘ziyani or bilgan polvon obrazi uchraydi.
- D) Ushbu asarda pochchasining avaylab boqayotgan qimmatbaho qushlariga qatiq (suzma) ichirib o‘ldirib qo‘ygan bolaning holati hajv bilan tasvirlangan.

Ushbu test topshirig‘ini bajarish uchun abituriyentlardan mustaqil ravishda to‘liq o‘qish uchun tavsiya etilgan qo‘shimcha badiiy asarlar, ulardagi voqealar bayoni, adabiy qahramonlar haqidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish talab etiladi.

**To‘g‘ri javob: A.**

**Manba:** O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” romani.

28. Qaysi asarda xalqni birlashmoqqa, o‘zaro diniy e‘tiqodlar nizosidan xalos bo‘lib, qabih mustamlakachilik zulmiga qarshi jang qilmoqqa chorlagan hamda o‘z e‘tiqodi yo‘lida yosh jonini ayamagan, tinimsiz tazyiqlar, hibs, qiynoqlarda yashagan shoir qismati aks etgan?

- A) “Ruhlar isyoni” (Erkin Vohidov)  
 B) “Sohibqiron” (Abdulla Oripov)  
 C) “Mardlik afsonasi” (Shuhrat)  
 D) “Mambet botirning qatl oldidan aytganlari” (O‘ljas Sulaymon)

Ushbu test topshirig‘ini bajarish uchun abituriyentlardan mustaqil ravishda to‘liq o‘qish uchun tavsiya etilgan qo‘shimcha badiiy asarlar, ulardagi voqealar bayoni, adabiy qahramonlar haqidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish talab etiladi.

**To‘g‘ri javob: A.**

**Manba:** Erkin Vohidovning “Ruhlar isyoni” romani.

29. *Quy, mezbanim, ammo had bilan,  
 Bog‘ing aro turfa gullar bor,  
 Oqshom menga niqob ostidan,  
 Ohu ko‘zin suzdi gulruxsor.*

Ohu ko‘zli Sharq go‘zaliga oshiqlik tasviri bo‘lgan ushbu misralar qaysi shoir qalamiga mansub.

- A) **Sergey Yesenin**    B) *To‘ra Sulaymon*  
 C) *Muso Jalil*    D) *O‘ljas Sulaymonov*

Ushbu test topshirig‘ini bajarish uchun abituriyentlardan jahon adabiyoti namoyandalari, ularning hayoti va ijodiga oid ma’lumotlarga ega bo‘lish talab etiladi. Mazkur test topshirig‘ida keltirilgan parcha rus shoiri Sergey Yesenin qalamiga mansub she‘rdan olingan.

**To‘g‘ri javob: A.**

**Manba:** Q.Yo‘ldoshev va boshqalar. 9-sinf adabiyot darsligi. “O‘zbekiston” NMIU. Toshkent-2019.

30. *Nomlanishi arabcha bo'lsa ham, bu she'riy shakl dastlab forsiy va turkiy she'riyatda paydo bo'lgan bo'lib, "to'rtlik", "to'rttadan" degan ma'nolarni bildiradi va to'rt satrli kichik hajmli she'riy janr sanaladi.*

Navoiyning qaysi misralar bilan boshlanuvchi she'ri ushbu nazariy ma'lumotga mos keluvchi janrda yozilgan?

A) **"Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz..."**

B) *"Men – sinuq, ko'nglum – sinuq, sabrim uyi xud – yerga past..."*

C) *"Ulki, sanga eldin erur aybgo'..."*

D) *"Tig'i ishqing yorasidur butmagan..."*

Adabiyot nazariyasiga oid ushbu test topshirig'ini bajarish uchun abituriyentlardan adabiy tur va adabiy janrlar haqidagi nazariy ma'lumotlar va Alisher Navoiy ijodiga oid bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish talab etiladi.

**To'g'ri javob: A.**

**Manba:** Sul-tonmurod Olim va boshqalar. 8-sinf adabiyot darsligi. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. Toshkent-2019.